
Jarayon

Ayni kunlarda Qo'shtepa tumanida dala chetlari hamda aholi tomorqasi, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi, mahallaning ichki ko'chalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususan, tuman markazidan Yozyovon tumani va Marg'ilon shahriga olib boruvchi yo'l yoqasiga tok ko'chati ekashi uchun tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Bugun tuman hokimi A.Abdullayev va tuman prokurori A.Xudoyberganovlar ushbu hududda bo'lib, jarayon bilan tanishdi.

Tashrif chog'ida tuman rahbari tomonidan mas'ullarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Shuningdek, tuman rahbari fermer xo'jaliklari tomonidan dala chetlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va obodonlashtirish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar bilan ham tanishib, mas'ullarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berdi.

2025-01-30 08:23:02